QO‘QON SHAHAR MAKTABGACHA, UMUMIY VA O‘RTA-MAXSUS TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLARNING STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDAGI TAHLILI

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7677242

Annotatsiya: Ushbu maqolada so`ngi yillarda Qo`qon shahri ta’lim tizimidagi o`zgarishlar va islohotlar maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o`rta ta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari, ularning faoliyati va o`qituvchi, o`quvchilari sonida yuz berayotgan o`zgarishlar statistik materiallar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** “Ta’lim togrisida”gi qonun, maktabgacha ta’lim muassasasi, umumiy orta ta’lim maktabi, kasb-hunar kolleji, o`qituvchi.

Аннотация: В данной статье были проанализированы изменения и реформы в системе образования города Кохан за последние годы, дошкольные образовательные учреждения, общеобразовательные средние школы и профессиональные колледжи, их деятельность и педагоги, школы изменения количества учащихся на основе статистические материалы.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», дошкольное образовательное учреждение, общеобразовательная школа, профессионально-техническое училище, педагог.

Abstract: In this article, the changes and reforms in the education system of the city of Kokand in recent years, preschool educational institutions, general secondary schools and vocational colleges, their activities and teachers, schools changes in the number of students were analyzed based on statistical materials.

Key words: Law "On Education", pre-school educational institution, general secondary school, vocational college, teacher.

Madaniy-ma`naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta`lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg`or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni ytishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo`lmaydi. O`zbekistonda 1992-yil 2-iyulda «Ta`lim to`g`risida»gi qonun qabul qilindi. Bu dasturilamal hujjatda ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta`lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog hodimlarning burch va mas`uliyatlari aniq belgilab berildi. Maktabgacha ta`lim tizimi uzluksiz ta`limning birlamchi, eng asosiy bo`g`inidir. Maktabgacha ta’lim, 6–7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko`ra, inson o`z umri davomida oladigan barcha axborot va ma`lumotning 70 foizini 5 yoshgacha

bo`lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog`lom va bilimli, yetuk kadrlar bo`lib voyaga yetishida bog`cha tarbiyasi juda muhim o`rin tutadi. Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash maqsadida O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda «Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to`g`risida»gi farmonni imzoladi [1, 1 b]. Unga ko`ra, Maktabgacha ta`lim vazirligi tashkil etildi [2, 75 b].

Qo`qon shaharda ham aholining ko`p qismini yoshlar tashkil qiladi. 2019-yilga kelganda bog`cha yoshidagi bolalarning umumiy soni 33276 nafarni tashkil qilmoqda. Shundan, 14223 nafarini 3 yoshgacha, 19053 nafarini esa 3 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan bolalar tashkil qiladi. Umumiy hisobda olganda Farg`ona viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta`lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2016 yilda shu yoshdagi aholining 28,9 foizini tashkil etdi. 2017 yil 1 yanvar holatiga viloyatda maktabgacha ta`lim muassasalari soni 670 tani tashkil etib, shundan 386 tasi shahar, 284 tasi qishloq joylarda joylashgan [3, 1 b]. Shundan, ya’ni 670 tadan 52 tasi Qo`qon shahrida joylashgan bo`lib, shu davrda har 100 ta o`ringa maktabgacha ta`lim muassasalarida 77 ta bola to`g`ri keladi. 2017-yilga kelganda Qo`qon shahrida joylashgan MTM lari soni 52 tani tashkil qilib, ular 8222 o`ringa xizmat ko`rsatishga mo`ljallangan. Lekin ularda ta`lim oluvchi bolalarning soni 6338 tani tashkil qilgan. MTM larda ishlovchi pedagog hodimlarining soni esa 720 taga yetgan. Shu yilda faoliyat olib boruvchi nodavlat ta`lim muassasalarining soni 7 ta bo`lgan bo`lsa, ularga qatnovchi bolalarning soni esa 211 taga yetgan. Nodavlat ta`lim muassasalarining qabul qamrovi 2017-yilda 430 ta tashkil qilgan. 7 ta NTM da 28 ta pedagog faoliyat olib borgan [4, 67 b].

2018-yilda Qo`qon shahrida MTM lar soni kamayib 45 taga tushib qolgan. MTM ga qatnovchi bog`cha yoshidagi bolalarning soni 8100 tani tashkil qilgan, umumiy o`rin esa 10502 nafarni tashkil qiladi. Ya’ni umumiy o`rinlarning 77 % qismi qoplangan. Ushbu yilda MTM larda ishlovchi pedagog xodimlarning soni 2017-yilga nisbatan +104 ta ortib 824 kishini ko`rsatmoqda [5, 140 b]. Lekin o`tgan yilning shu davriga mos ravishda faoliyat olib boruvchi nodavlat ta`lim muassasalarining soni 3 taga tushib qolgan, ya’ni -4 taga kamaygan. Ammo ularda tarbiyalanuvchi bolalarning soni 294 tani tashkil qilmoqda. Bu esa umumiy qabul qilish miqdorida ko`proq ko`rsatkichni qayd etmoqda. Ya’ni 3 nodavlat ta`lim muassasalarining bola qamrovi 270 ta bo`lishga qaramasdan, ularga qatnovchilarning soniyuqoridagi ko`rsatilganidek 294 tani qayd etmoqda. NTM larda ishlovchi pedagoglarning soni ham 28 tadan 16 tagacha kamaygan [4, 67 b].

2019-yilga kelganda esa maktabgacha ta`lim muassasalarining soni o`tgan yilllardagi ko`rsatkichlarga nisbatan 3 taga ortib, 48 tani tashkil etgan. MTM larga

boruvchilar soni esa o`tgan yilga nisbatan 8100 nafardan 9341 nafargacha yoki +1241 nafarga ortgan. MTM larning qabul qilish quvvati ham +1380 nafarga ko`pyaib, 11882 nafarni qayd etgan [5, 140 b]. MTM larda ishlovchi pedagoglar esa 955 nafarga yetgan. Nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalarining soni o`zgarish qolgan va 3 tani tashkil qilgan. Nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalarining qabul qamrovi 270 ligicha qolganligiga qaramasdan, ularda tarbiyalanuvchi bolalarning soni 321 nafarga yetgan. Ularga esa 17 nafar pedagog xodimlar tarbiya berishmoqda [6, 25 b]. Ushbu ma`lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, aholi soning ortib borishiga qaramasdan MTM bog`cha yoshidagi bolalarning barhcasini qamrab olishga qurbi yetmayapti. Lekin shunga mos ravishda bugungi kunda bog`cha o`rinlarining umumiy qamrovi ham ortib bormoqda. MTM larning bo`sh o`rinlari ham yildan yilga ortmoqda. Misol uchun, 2017-yilda 1884 ta, 2018-yilda 2402 ta, 2019-yilda esa 2541 ta o`rin bo`sh qolgan. Shu yillarda Qo`qon shahrida maktabgacha yoshdagi, ya’ni 3 yoshgacha va 3-7 yosh oralig`idagi aholining umumiy soni 2016-yilda 33267 kishini, 2017-yilda 32153 kishini, 2018-yilda 32755 kishini va 2019-yilda 33276 kishini tashkil qilgan [7, 1 b]. Ushbu statistik ma`lumotlardan shuni bilish mumkinki, MTM lar jami bog`cha yoshidagi bolalarning atigi 25-35 % qisminiga qamrab olish uchun yetarli bo`lmoqda.

Maktabgacha ta`lim bosqichidan keyingi bosqich bu umumta`lim maktablari hisoblanadi. Bunda 1-11-sinflardan iborat maktablar tushuniladi. Farg`ona viloyatida 2016/2017 o`quv yilida mavjud 918 ta umumiy o`rta ta`lim maktablarida jami 510 mingta o`quvchilar tahsil olgan. 2016-2017-o`quv yilida Qo`qon shahrida 36503 ta maktab o`quvchisi ta`lim olayotgan bo`lsa, ulardan 3415 tasi 9-sinf bitiruvchilari hisoblangan [4, 68 b]. Ularga jami 2090 ta o`qituvchilar saboq bergan. 2016-yilda har bir o`qituvchiga 17,5 o`quvchi to`g`ri kelgan.

2017-2018-o`quv yili davomida o`quvchilarning soni 39907 taga ortgan [6, 26 b]. 9-sinf bitiruvchilarining soni esa 3248 talik natijani ko`rsatgan. Umumta`lim maktablarida ishlovchi pedagoglarning soni +181 taga ortib, 2271 tani tashkil etgan. Ushbu o`quv yilida mavjud maktablarning umumiy soni 49 tani tashkil etgan [5, 141 b].

Xuddi shunday ko`rsatkichlar ham 2018-2019-o`quv yilida mos ravishda 49 ta maktabda jami 44559 nafar o`quvchi, 3500 nafar 9-sinf bitiruvchisi va 2549 nafar pedagog kadrlarni tashkil etadi.

2019-2020 o`quv yilida shahar bo`yicha 51 ta umumta`lim muassasalari faoliyat ko`rsatgan. Ularda 48512 o`quvchilar ta`lim oladilar [6, 26 b]. Jami o`quvchilarning 43,8 % ni 1-4 sinf o`quvchilari, 42,1 % ni 5-9 sinf o`quvchilari va 13,3 % ni 10-11 sinf o`quvchilari tashkil etadi. O`quvchilarga 2785 nafar (o`rindoshlarsiz) pedagog hodimlar ta`lim bergan [5, 141 b].

Yuqoridagi statistik ma`lumotlarni tahlil qiladigan bo`lsak, so`ngi yillarda maktabdagi o`quvchilarning soni 2016-yilda 36503 nafardan 2019-yilda 48512 nafarga

yoki +12009 nafarga ko`paygan. Shunga mos ravishda maktabda faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning soni ham 2016-yildagi 2090 talik ko`rsatkichdan +777 taga ko`payib, 2019-yilda 2867 tani ko`rsatmoqda.

Ta`lim tizimidagi keyingi bosqich bu kasb-hunar ta`lim tizimi hisoblanadi. Kasb-hunar ta`lim tizimiga asosan kasb-hunar kollejlari kiradi. 2016-2017-o`quv yili davomida Qo`qon shahrida 14 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat olib borgan. Ularda 15941 nafar o`quvchi ta`lim olgan. Ularning 5375 nafari bitiruvchi kurs vakillari hisoblangan. 1170 nafar pedagoglar ularga ta`lim bergan [4, 68 b]. 2017-2018-o`quv yilida ham 15 ta kollejlar mavjud bo`lib, ularda 1195 nafar o`qituvchilar faoliyat olib borgan. Ulardan 5343 nafari bitiruvchi kurs o`quvchilari bo`lsa, ularning umumiy miqdori 13234 nafarni tashkil qilgan [5, 142 b]. 2018-2019-o`quv yilida esa kasb-hunar kollejlarining soni 15 tani tashkil qilgan. O`quvchilarining soni 10232 nafarni, shundan bitiruvchilari 5517 nafarni ko`rsatgan [4, 68 b]. O`quvchilarning soni o`tgan yilga nisbatan kamayganligi sababli, o`qituvchilarning soni ham mos ravishda 758 kishigacha kamaygan. 2019-2020 o`quv yilida shahar bo`yicha 10 ta kasb-hunar kolleji faoliyat ko`rsatdi. Ta`lim olayotgan o`quvchilar soni 4868 nafarni tashkil etgan. Ularning 57,8 % qizlardan iborat. 2019-o`quv yilida 6818 ta o`quvchi bitirdi. O`quvchilarga 402 nafar pedagog hodimlar ta`lim bermoqdalar [6, 27 b]. Ushbu ta`lim bosqichidagi statistik ma`lumotlarni tahlil qiladigan bo`lsak, ularning soni so`ngi 4 yil davomida 15 tadan 10 taga tushib qolgan. O`sish ko`rsatkichi -5 tani qayd etmoqda. Ularda ta`lim oluvchilarning soni ham mos ravishda kamayib borgan. Misol uchun, 2016-yil o`quv yili boshida o`quvchilarning soni 15941 nafardan, 2019-yil o`quv yili boshigacha -11073 nafargacha yoki deyarli 2,5 barobagacha kamayib, 4868 nafarni tashkil qilmoqda. O`z navbatida o`quvchi sonining kamayishi proporsional tarzda ta`lim beruvchi o`qituvchilar soniga ham ta`sir ko`rsatadi. Ularning soni ham xuddi shu davrda 1170 nafardan 402 nafargacha kamayib ketgan. Bunday keskin o`zgarishlarni asosiy sababi sifatida 2017-2018-o`quv yilidan boshlab maktab ta`lim tizimida 11 yillik ta`lim shakliga qaytilganligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o`tish kerakki, Qo`qon shahrida ham yurtimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarga mutanosib ravishda islohotlar davom ettrilmoqda. Ta’lim tizimimizning hamma bosqichidagi rivojlanish shahar madaniy hayotining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. https://lex.uz/docs/-3362886

2. N.Jo`rayev, A.Zamonov – O`zbekiston tarixi. Toshkent. G`.G`ulom, 2018. 75-b

3.https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/8701-maktabgacha-ta-lim-tashkilotlaridagi-bolalar-soni-qanchani-tashkil-etdi.html

4. Qo'qon shahrining 2016-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida AXBOROTNOMA. Qo`qon – 2019. 94 b.

5. Qo'qon shahar 2017-2019 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida AXBOROTNOMA. Farg`ona - 2020. 147 b.

6. M.M.Qodirov. “Qo`qon shahrining ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayoti (1991-2019 yillar)”. Qo`qon. 2021. 84 b.

7. Qo'qon shahrining 2012-2019 yillardagi yosh tarkibi to'g'risida ma'lumot. Qo`qon shahar statistika bo`limi. 2020. B.1